



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Usmonova Dilobar

Qashqadaryo viloyat PYaMO'MM  
Pedagogika, psixologiya va ta'lif menejmenti kafedrasi katta  
o'qituvchisi

## KREATIVLIK TUSHUNCHASI VA UNING TALQINI

**1 Annotatsiya:** Maqolada kreativlik tushunchasi, uning mohiyati, ta'lif jarayonida aks etishi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

**1 Abstract:** The article describes the concept of creativity, its essence, and information about its reflection in the educational process.

**1 Kalit so'zlar:** Kreativlik, ijodkorlik, ta'lif jarayoni, fikrlash, tafakkur, his-tuyg'ular, g'oyalar, muammo, farazlar, pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiyalar.

**1 Key words:** Creativity, creativity, educational process, thinking, thinking, feelings, ideas, problem, hypotheses, pedagogical technology, innovative technologies.

"Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilar uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar.

Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikn yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.). Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o'quv topshiriq, masala va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda



masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi.

Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani echishda talaba echimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri echimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhash mumkin:

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minkaydi. Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati darajasini aniqlab boradi.

Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O‘quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to‘rtta mezonni qanotlantirishi lozim. E.P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi: Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin

O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilaigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi.

So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda. “Kreativ pedagogika” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

- 1) o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;
- muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligidagi nisbatan ta’sirchanlik

Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minkashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobjiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

2) o‘qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli o‘quvchilar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadi. Buning sababli ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar bolalarda erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Muallif tomonidan tavsiya qilingan vosita va strategiyalar talabalarda kreativlikni rivojlantirishda o‘qituvchilar uchun qo‘l keladi hamda talabalarda o‘quv fanlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, intilishni rivojlantiradi



Bugungi kunda turli mamlakatlarda ilm-fan yo‘nalishlari, ishlab chiqish, texnika, texnologiya va ijtimoiy sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Har qanday islohot esa muayyan maqsadni ifodalash bilan birga ma’lum darajada innovatsion o‘zgarishlarning ro‘y berishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga innovatsiyalar tezkor rivojlanish va o‘zgarishlarning o‘ziga xos omili sifatida ko‘zga tashlanadi. Biroq, bu o‘rinda shuni ham alohida qayd etib o‘tish lozimki, islohotlar jarayonida ro‘y berayotgan yangiliklarning barchasi ham innovatsiya bo‘la olmaydi.

Turli sohalarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar mohiyati va yangilik darajasiga ko‘ra ikki turga, ya’ni novatsion va innovatsion yangiliklarga ajratiladi.

Agarda muayyan sohada amalga oshirilayotgan islohotlar qisqa muddatli bo‘lib, yaxlit tizim xususiyatini ifodalamasa hamda mavjud tizimning ayrim unsurlarini o‘zgartirishgagina xizmat qilsa, u holda novatsiya yuz berganligini anglash mumkin. Novatsion o‘zgarishlarni quyidagi mezonlarga muvofiq baholash imkoniyati mavjud: islohotlar mavjud nazariya va ta’limotlarning g‘oyalariga muvofiq amalga oshiriladi, uning ko‘lam aniq chegaralanadi, tashkil etilish va oraliq vaqt ma’lum bo‘ladi, yangi metodlar qo‘llaniladi hamda mavjud tizim takomillashadi.

Sohada amalga oshirilayotgan islohotlar konseptual yondashuv asosida tashkil etilib, ularning natijalari tizimning keskin rivojlanishi yoki tubdan o‘zgarishini ta’minlasa, u holda innovatsion o‘zgarishlarning sodir bo‘lganligini e’tirof etish mumkin. Innovatsion o‘zgarishlarni esa quyidagi mezonlar yordamida baholash mumkin: islohot jarayoni muayyan tizim asosida davomli kechadi, yangi faoliyat tizimi loyihalanadi, sub’yektlari jarayondagi o‘rni va roli o‘zgaradi va ijobjiy ahamiyat kasb etadi, faoliyatning yangi yo‘nalishlari yuzaga keladi, ilg‘or texnologiyalar yaratiladi, sifat natijalar qo‘lga kiritiladi.

Ma’lumki, bugungi kunda innovatsion texnologiyalarni yaratish va ta’lim – tarbiya jarayonida qo‘llash pedagoglar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu vazifalar ilg‘or pedagogik texnologiyalarni yaratish, tatbiq va targ‘ib etish, ta’lim jarayonini eng ko‘p mahsul beradigan, serunum, sermahsul metodlar (intensiv) asosida tashkil qilish bilan belgilanadi.

O‘quvchilarning har tomonlama yetuk, ma’naviy barkamol, komil inson bo‘lib yetishishi – biz ko‘zlagan maqsadga nechog‘li erishganligimizni belgilab beradi. Milliy dasturni ro‘yobga chiqarishning ikkinchi bosqichida “...o‘quv – tarbiyaviy jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta‘minlash” muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shunday ekan, pedagogik texnologiyaning mazmun – mohiyatini anglab yetish, uni amalda qo‘llashning samarali yo‘llarini tanlash, interfaol usullar va didaktik o‘yinlarning qo‘llanilish usullari, me’yorlarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiya nima?

Dastlab “texnologiya” tushunchasi bilan tanishaylik. “Texnologiya” – yunoncha, “tehne” – san‘at, mahorat, “logos” – fan degan so‘zlardan olingan. “Texnologiya” tushunchasi fanga 1872 yilda kirib kelgan.



**Texnologiya** – shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini mujassamlashtirgan va yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik hodisa. (Pedagogik atamalar lug'atidan)

**Texnologiya** – ta'lif – tarbiya jarayonini tashkil etish, uni boshqarish, pedagogik va o'quv faoliyatini tashkil qilish usullari tavsifi. (Pedagogik atamalar lug'atidan)

### Texnologiya -


**Texnologiya** – bu ma'lum bir muayyan maqsadga yoki maqsadlar tizimiga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar ketma – ketligidan iborat bo'lgan yaratuvchanlik faoliyati. (Pedagogika fanidan izohli lug'at)

**Texnologiya** – manbalardagi (ob'yektlardagi) sifat o'zgarishlarga olib keluvchi jarayon. (Pedagogika fanidan izohli lug'at)

Pedagogik texnologiya tushunchasi inglizcha “an educational technology” so'zidan olingan bo'lib, “ta'lif texnologiyasi” degan ma'noni anglatadi.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi dastlab XX asrda AQSH da qo'llana boshlangan.

#### Pedagogik texnologiyaning rivojlanish bosqichlari:




“Pedagogik texnologiya” ga ko'plab yirik olimlarimiz o'zlarining ilmiy asoslangan turli fikr va ta'riflarini bergenlar. Quyida ana shunday ta'riflarni keltirish orqali qiyosiy ta'riflaymiz.

Pedagogik texnologiya – bu ijtimoiy hodisa. Bir so'z bilan uni ta'lif jarayonini eng sermahsul usullar asosida tashkil qilishdan iborat tizim, deyishimiz mumkin. Pedagogik texnologiya tushunchasi serqirra tushuncha bo'lib, u ta'lif – tarbiya jarayonini takomillashtirish, tarbiyachi-



tarbiyalanuvchi munosabatlarini faollashtirish hamda ta'lim berish va bilim o'zlashtirish faoliyatini qulaylashtirish imkonini beradi.



Pedagogik texnologiya asosidagi faoliyat muayyan tizimning aniq maqsadlar asosida jadallahishini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytganda, ilg'or pedagogik texnologiyalarini ta'lim jarayonida unumli qo'llash natijasida ta'lim shakllarini optimallashtirishga, ta'limning maqsadini aniq belgilashga, o'qituvchi- o'quvchi hamkorligini va faolligini oshirishga erishiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, TDPU, 2003.
2. Ishmuhammmmedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: TDPU, 2005.
3. Ishmuhammmmedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. - T., 2010.